O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori _____ X.B.Yunusov
2025-yil “28” _____

MOLIYAVIY TAHLIL-2

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxasislik:	70410102	– Iqtisodiyot
	70410201	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MT22306	2025-2026	3	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Tanlov	O‘zbek/rus		6

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliyaviy tahlil-2	90	90	180

2. I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – talabalarga xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning faoliyati, ularning samaradorligi, moliyaviy ahvoli va natijaviyligi, pul oqimlarini boshqarish va kapitalni o‘stirish imkoniyatlarini aniqlashni o‘rgatish.

Fanning vazifasi - talabalarga xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning aktivlari va ularning kelgusidagi ko‘payishi, kapitali va uning o‘sishi, majburiyatlarining holati, moliyaviy natijasi va rentabelligi, pul oqimlari va ularning kutilishlari boshqaruvning barcha ob’yektlari bo‘yicha axborotlarni chuqur qayta ishlash orqali faoliyatni turi va maqsadli yo‘lga qo‘yishni ko‘rsatib berishdan iboratdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari

Tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli, o‘rni va ahamiyati. Moliyaviy tahlil fanining predmeti, ob’yekti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Tahlil metodining o‘ziga xos xususiyatlari, uning boshqa fanlardan farqli jihatlari.

Moliyaviy tahlilda qo‘llaniladigan usullar: an’anaviy (taqqoslash, balans, o‘rtacha miqdorlar, zanjirli almashtirish, indeks, farqli, nisbiy ko‘rsatkichli kabi) va iqtisodiy matematik (integral, chiziqli va chiziqsiz dasturlash, nazariy o‘yin. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari: moliyaviy hisobotni o‘qish, gorizontal, vertikal, trend, qiyosiy, omilli, koeffitsiyentlar tahlili.

Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar o‘rtasida tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy tahlil sub’yektlari (haqiqiy va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar) va ularning qiziqishlari.

2- mavzu. Moliyaviy tahlilda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tasniflash belgilari. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mazmuni bo‘yicha tasniflanishi. Ko‘rsatkichlarni foydalanish doirasi bo‘yicha tasniflanishi. Ko‘rsatkichlarning ifodalanish shakli bo‘yicha tasnifi.

Ko'rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash. Ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha tasniflash.

Zamonaviy korporativ moliyalashtirish, DCF, multipl misollar, biznes qiymatini kompleks o'rganish. Buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha qo'mita (IASC), Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC).

3- mavzu. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.

Omilli tahlil va uning asosiy elementlari. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tasnifi. Moliya-xo'jalik faoliyatiga omilla rta'sirini aniqlash tartibi.

4-mavzu. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari

Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning me'yoriy asoslari. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlil ni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lami, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish. Moliyaviy tahlil ning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash.

Moliyaviy tahlil bosqichlari. Moliyaviy tahlil ning axborot manbalari (tahlil ob'yektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi. Moliyaviy hisobotlar shakllari va ularning tavsifi. Jamlangan moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etish. Moliyaviy hisobotni tuzishda milliy va xalqaro standartlarning moliyaviy hisobot mazmuniga ta'siri.

Moliyaviy tahlilni muammoli jihatlari (davriy oraliqdagi qiyosiylik, turli korxonalar o'rtasidagi qiyosiylik, axborot operativligi muammolari). Auditor xulosalarini ko'rib chiqish. Auditdan o'tkazilmagan hisobotlar. Moliyaviy tahlil da qo'llaniladigan boshqa axborotlar. Moliyaviy tahlil da kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish.

5-mavzu. Korxonaning operatsion faoliyatini tahlili

Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari. Korxona faoliyatining turlari: operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat. Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari.

Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili. Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili. Mahsulot (ish, xizmatlar)

ishlab chiqarish hajmini tahlili. Mahsulot assortimentini boshqarish va ishlab chiqarish maromiyligi tahlili. Sotish hajmini tahlili.

Korxona operatsion faoliyati samaradorligini (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, innovatsion mahsulot, eksport hajmi ko'rsatkichlarini) baholash. Operatsion leveridj tahlili. Operatsion risklar va ularni boshqarish.

6-mavzu. Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili

Xarajatlar tahlili maqsadi, mazmuni va vazifalari. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tahlili. Xarajatlarni umumiy hajmi va ularni asosiy elementlari bo'yicha baholash, tahlil qilish. Xarajatlarni faoliyat turlari, javobgarlik markazlari kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili.

Moddiy, mehnat haqi, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari tahlili. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tahlili. Mahsulot (ish, xizmat)larning xarajat sig'imini tahlili. Xarajatlarni maqbullashtirish va samaradorlikni oshirish yo'llari.

7-mavzu. Buxgalteriya balansi tahlili

Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar. Balans ma'lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi

IFRS – International Financial Reporting Standards. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari — bu korxonalarning moliyaviy hisobotlarini tuzish va taqdim etish uchun butun dunyoda qabul qilingan yagona me'yorlar tizimi. Ularni IASB (International Accounting Standards Board) ishlab chiqadi. IAS 16 asosida asosiy vositalar qiymati va eskirish darajasi baholanadi. IAS 2 zaxiralarni baholash usullari. IFRS 13 – bozordagi haqiqiy (real) qiymatlar bo'yicha aktivlar qayta baholanishi mumkin

Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi.

8-mavzu. Moliyaviy barqarorlik tahlili

Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri. Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va me'yoriy barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov tomonidan 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Moliyaviy tahlil-2" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotni isloh qilish va mamlakatni modernizasiyalashtirish hamda jamiyatni demokratlashtirish talablaridan kelib chiqib iqtisodiy fanlar o'quv dasturlarini yangilash davr talabi bo'lib qolmoqda. "Moliyaviy tahlil-2" fani bo'yicha o'quv dasturi 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 40 soat ma'ruza, 50 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Moliyaviy tahlil-2" o'quv dasturida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyati, ularning samaradorligi, korxonaning operatsion faoliyatini tahlili, ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili, buxgalteriya balansi tahlili, moliyaviy barqarorlik tahlili, kreditga layoqatlilik tahlili, debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili, moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili, pul oqimlari tahlili, xususiy kapital tarkibi va uning tahlili, korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish, korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish, moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash, moliyaviy tahlilda investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili kabi dolzarb mavzularni qamrab olib, mavzular mazmuni shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

Umuman olganda, "Moliyaviy tahlil-2" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari talabalarini o'qitishda o'quv dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor **S.N.Toshnazarov**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov tomonidan 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Moliyaviy tahlil-2" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kuchli raqobat sharoitida ta'lim tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanma va dasturlarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Bu esa barcha sohada ilm–fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ana shullarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ilm–fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" qonuni qabul qilinib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, bu sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlangan mamlakatlar ta'lim dasturlarini transformatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoq korxonalariga raqobatbardosh malakali kadrlar yetkazib berishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

"Moliyaviy tahlil-2" fani o'quv dasturi 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja asosida tuzilgan. Ushbu tayyorlangan dastur "Moliyaviy tahlil-2" fanining nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari hamda masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalariga asoslanadi.

"Moliyaviy tahlil-2" fani bo'yicha o'quv dasturi 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 90 soat auditoriya darsi, 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Moliyaviy tahlil-2" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturi talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, "Moliyaviy tahlil-2" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70410102- Iqtisodiyot, 70410201-"Buxgalteriya hisobi" magistratura mutaxassisliklari talabalarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika"
kafedrasi mudiri, i.f.b.f.d., dotsent **Mardonov M.Sh.**

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlar va ularning tahlili. Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili. Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash

9-mavzu. Kreditga layoqatlilik tahlili

Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kreditga layoqatlilikning tavsifi. Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va ballik (skoring) baholash tizimi. Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklari kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari.

Kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar tahlili. Korxonaning ishonchliligini baholash. Korxona raqobatdoshligining tahlili. Daromad tahlili. Kreditlarning muddatliligi va maqsadliligi bo'yicha ishlatilish tahlili. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi.

10-mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili

Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va muddati bo'yicha tahlili.

Qarzdorlik dinamikasining natijaviy va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili (qarzlarning aylanuvchanligi va qoplanuvchanligi tahlili). Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari va ular yuzasidan rezervlar tahlili.

11-mavzu. Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili

Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarining bir-biri bilan bog'liqligi.

Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llari. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlari tahlili. Marjinal foyda tahlili. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Moliyaviy natijalar tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari va ularning tavsifi. Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo'llari. Xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari. Asosiy va umumxo'jalik faoliyati foydasi

(zarari), ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari. Favqulodda foyda va zararlar tahlili. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili. Byudjetga to'lovlar va ajratmalarning tahlili. Soliq to'lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili. Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo'llari va tahlili. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash

12-mavzu. Pul oqimlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari. Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi. Pul oqimlarini bashoratlash. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili. Pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri uslubi.

Xalqaro kapital tuzilishi, risk va investitsiya qarorlarini asosiy printsiplari. Eksport va import qiymatlari va o'sish sur'atlari o'rganiladi. Savdo balansi (export – import) tahlil qilinadi. Savdo partnyorlar (asosiy xaridor/sotuvchilar) o'rganiladi.

13-mavzu. Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili

Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda.

Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili. Xususiy kapitalning dinamik tahlili. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili.

14-mavzu. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob'yektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili. Iqtisodiy holat nobarqarorligi.

Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy nochorlik

8. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. –Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
12. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. 2-nashr. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.
13. Sagdillayeva Z., Choriyev I., Hamidova S., Yuldasheva U. Iqtisodiy tahlil. Darslik. - T.: "IQTISODIYOT", 2020.
14. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. -T.: "Ilm Ziyo", 2012.
15. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. -5 е изд., пер. и. доп. –М: Инфра-М.: 2009.

Axborot manbaalari

14. www.lex.uz
15. www.stat.uz
16. www.mineconomy.uz

7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi Kengashning 2025-yil "__" _____ __ sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan..
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** A.I.Alikulov – SamDVMChBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori G.B. Narziyeva – SamDVMChBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi assistenti.
9.	**Taqrizchilar:** Toshnazarov S. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi mudiri professor, i.f.d. Mardanov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi mudiri dotsent i.f.d. (PhD).

• Moliyaviy tahlil ni tashkil etish, tahlil qilishda manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish va amalga oshirish bosqichlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

• xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning aktivlari va ularning kelgusidagi ko'payishi, kapitali va uning o'sishi, majburiyatlarining holati, moliyaviy natijasi va rentabelligi, pul oqimlari va ularning boshqaruvning barcha ob'yektlari bo'yicha axborotlarni chuqur qayta ishlash orqali faoliyatni turi va maqsadli yo'lga qo'yish ***ko'nikmaga ega bo'lishi.***

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Xasanov B.A., Raximov M.Y., Aliqulov A.I. va bosh. Moliyaviy tahlil . Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2022.
2. M.Y. Raximov, N.N. Kalandarova Moliyaviy tahlil. Darslik. -T.: Iqtisod-Moliya, 2019.
3. Dusmuratov R.D. Moliya. Darslik. –Toshkent: "Fan va texnologiya", 2013. 426 b.
4. Tim Koller, Marc Goedhart, David Wessels.Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies - John Wiley & Sons, 2015. 848p.
5. Aswath Damodaran. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. John Wiley & Sons, 2025 1136p.
6. Benjamin Graham & David Dodd. Security Analysis Whittlesey House / McGraw-Hill. 2023, 623p.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.

(bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish.

15-mavzu. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish

Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari.

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari. Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi va ularga qo'yiladigan talablar. Reyting baholash amaliyoti.

Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'satkichlarining qiyosiy tahlili. Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirlash. Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

16-mavzu. Qayta ishlash korxonalarida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va materiallardan foydalanish tahlilining xususiyatlari.

Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligining tahlili. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili.Texnologik uskunalardan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining tahlili. Nomoddiy aktivlardan foydalanish tahlili. Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.

17-mavzu. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash.

Moliyaviy hisobot elementlarini ahamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash.

Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni bashoratlash. Bashorat ko'rsatkichlarining ishonchliligini baholash hamda bashoratlashdagi kamchiliklar.

18-mavzu. Moliyaviy tahlilda investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili

Korxonaning investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyati, uning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Investitsion faoliyatni baholash usullari. Ishlab

chiqarish investitsiyasining tahlili. Moliyaviy investitsiyaning tahlili.

Korxona eksport operatsiyalarining tahlili. Korxona import operatsiyalarining tahlili. Eksport-import operatsiyalaridan olingan daromadlar va xarajatlar tahlili.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari
2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari
3. Korxonaning operatsion faoliyatini tahlili
4. Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili
5. Buxgalteriya balansi tahlili
6. Korxona moliyaviy holatining tahlili.
7. Moliyaviy barqarorlik tahlili
8. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili
9. Kreditga layoqatlilik tahlili
10. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili
11. Moliyaviy natijalar tahlili
12. Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili
13. Pul oqimlari tahlili
14. Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliq to'lashlardagi pul oqimining tahlili
15. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili.
16. Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili
17. Xususiy kapitalning dinamik tahlili.
18. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili
19. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish
20. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish
21. Korxona tashqi iqtisodiy faoliyatining tahlili
22. Korxona eksport operatsiyalarining tahlili.
23. Korxona import operatsiyalarining tahlili.
24. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash
25. Moliyaviy tahlil da investitsion va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari
2. Moliyaviy tahlil ni tashkil etish va axborot manbalari
3. Korxonaning operatsion faoliyatini tahlili
4. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tahlili
5. Korxonaning davr xarajatlari tahlili
6. Buxgalteriya balansi tahlili
7. Moliyaviy barqarorlik tahlili
8. Kreditga layoqatlilik tahlili
9. Korxona debitorlik qarzlari tahlili
10. Korxona kreditorlik qarzlari tahlili
11. Moliyaviy natijalar tahlili
12. Korxona rentabellik ko'rsatkichlari tahlili
13. Pul oqimlari tahlili
14. Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili
15. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili
16. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish
17. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish
18. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash
19. Korxona eksport operatsiyalarining tahlili.
20. Korxona import operatsiyalarining tahlili

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi.

Mustaqil ta'limning tashkiliy shakllari quyidagilardan iborat: muayyan mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, berilgan mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, moliyaviy hisobot va statistik hisobot ma'lumotlarini tahlil qilib o'rganish, berilgan mustaqil ish mavzulari bo'yicha kompyuter dasturlarida taqdimotlar tayyorlash, keys-stadilar tayyorlashda ishtirok etish; ilmiy maqolalar yozish; ilmiy anjumanlarga ma'ruzalar va ma'ruza tezislarini tayyorlash.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Moliyaviy tahlil ning maqsadi, ob'yektlari va sub'yektlari, tahlilning vazifalari va axborot manbalari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***